



**FUQAROLARNING O‘ZINI O‘ZI BOSHQARISH ORGANLARI
FAOLIYATIDA ENERGIYA TA‘MINOTI VA DAVLAT-XUSUSIY
SHERIKLIK SHARTNOMALARNI QO‘LLASH
MASALALARI**

Qilichev Xayrulla Mamatovich,

IIV Akademiyasi Fuqaroviy-huquqiy fanlar
kafedrasi boshlig‘i, yuridik fanlar bo‘yicha
falsafa doktori (PhD), dotsent
+998909180216

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20502039>

Annotatsiya. Mazkur maqolada energiya ta‘minoti shartnomalarining huquqiy tabiati, ularning amaldagi qonunchilikdagi o‘rni hamda amaliy muammolari o‘rganilgan. Muallif tomonidan aniq normativ-huquqiy takliflar ilgari surilgan.

Tayanch tushunchalar. Mahalla fuqarolar yig‘ini, mahalliy o‘zini o‘zi boshqarish organlari, energiya ta‘minoti shartnomasi, davlat-xususiy sheriklik, munitsipal mulk, shartnomaviy munosabatlar, moliyaviy mustaqillik, soddalashtirilgan xarid tartibi, energetik audit, subshartnoma, huquqiy tartibga solish.

Energetika shubhasiz, isloh etilishi lozim bo‘lgan eng dolzarb sohalardan biri hisoblanadi. Energetika tizimini isloh qilish, fikrimizcha, iste‘molchilarga energiya resurslarini berishni tartibga solishni yaxshilashga yordam beradi.

Fuqarolik kodeksi energiya ta‘minoti shartnomasini oldi-sotdi shartnomalariga mansub deb hisoblaydi, chunki u bunday shartnomaviy majburiyatning barcha belgilariga ega: bir taraf boshqa tarafga haq evaziga ma‘lum

Contact: 99 826 99 56





tovarni (energiyani) topshiradi.

Bu turdagi shartnomaning umumiy tavsifi FKning 468-moddasida berilgan bo'lib, unga ko'ra, energiya yetkazib beruvchi tashkilot abonentga (iste'molchiga) ulangan tarmoq orqali energiya yetkazib berish majburiyatini oladi, abonent esa qabul qilingan energiya uchun to'lov qilish, shartnomada belgilangan energiya iste'mol rejimiga rioya qilish, o'z qaramog'idagi energiya tarmoqlari va energiyadan foydalanish bilan bog'liq uskunalarning xavfsiz ekspluatatsiyasini hamda ularning yaroqli holatini ta'minlash majburiyatini oladi.

Abonent sifatida har kim chiqishi mumkin emas, chunki unga quyidagi ikki muhim talab qo'yiladi:

abonentda energiyani qabul qilish qurilmasi mavjud bo'lishi va u belgilangan texnik talablarga javob berishi hamda energiya yetkazib beruvchi tashkilot tarmoqlariga ulangan bo'lishi;

energiya iste'molini hisobga olishni ta'minlaydigan zarur uskunalarga ega bo'lishi.

Qonun shartnoma subyektlari sifatida sotuvchi va xaridorni belgilaydi. Shu bilan birga, fuqarolik qonunchiligida tartibga solinmagan ayrim holatlar ham mavjud. Gap, avvalo, vositachilik tashkilotlari haqida ketmoqda. Ular ham energiya resurslarining sotuvchisi va xaridori sifatida mustaqil subyekt hisoblanib, shartnomalarda "qayta sotuvchi" sifatida qayd etiladi.

Fuqarolik huquqi sohasidagi olimlar orasida energiya ta'minoti shartnomasining huquqiy maqomiga oid bahslar davom etmoqda. Ayrimlar "energiya ta'minoti shartnomasi doirasiga elektr, issiqlik energiyasi va gaz bilan ta'minlash jarayonida shakllanadigan barcha munosabatlar kiradi" deb hisoblaydilar.

S.M. Korneyev ilk bor elektr, issiqlik energiyasi va gaz bilan ta'minlash shartnomalarini mustaqil energiya ta'minoti shartnomasi sifatida ajratish masalasini





ko'targan [1].

A.M. Shafir esa “to'rga ulangan tarmoq orqali ta'minlash shartnomalari elektr energiyasi, issiqlik va gaz bilan faqat ulangan tarmoq orqali (ya'ni elektr tarmog'i yoki quvur orqali) ta'minlash munosabatlarini ifodalaydi” deb ta'kidlaydi. Olimning fikricha, aynan shunday holatdagina uzluksiz ta'minot xarakteri bilan bog'liq ta'minotchi tashkilot va iste'molchi faoliyati o'rtasida bevosita bog'liqlik mavjud bo'ladi va shartnomaviy munosabatlar energiya va gazdan foydalanish sohasiga tarqaladi [2].

A.P. Sergeyev va Y.K. Tolstoy tahriridagi “Fuqarolik huquqi” darsligi mualliflari issiqlik energiyasi, suv, neft va neft mahsulotlari bilan ta'minlash shartnomalarini energiya ta'minoti shartnomasining turlari sifatida ko'rishni taklif qiladilar, ya'ni ularni mustaqil ravishda ajratish zarurligini ta'kidlaydilar [3].

Bu pozitsiyaga qo'shilmagan V.V. Vitryanskiy energiya ta'minoti shartnomasi qoidalariga tayanadi va “energiya (neft, gaz, resurslar, tovarlar)ni ulangan tarmoq orqali yetkazib berish (topshirish) — bu shartnoma majburiyatlarini bajarishning faqat texnik xususiyati (usuli) hisoblanadi, u alohida shartnoma turini yoki hatto fuqarolik-huquqiy shartnoma turlaridan birini (masalan, sotib olish-sotish shartnomasi turini) ajratish uchun tur belgilovchi mezon bo'la olmaydi” deb qayd etadi.

Shu bilan birga, mazkur turdagi shartnomaga nisbatan chuqurroq tahlilni O.N. Sadikov amalga oshirgan. Uning fikricha, “sanoat korxonalarini gaz bilan ta'minlash shartnomasini maxsus turdagi shartnoma sifatida, yetkazib berish shartnomasining turi sifatida emas, baholash amaliyotda muayyan qiyinchiliklarni tug'diradi”.

O.N. Sadikov va V.V. Vitryanskiyning nuqtai nazarlari to'g'ri tuyuladi. Ular energiya ta'minoti shartnomasida elektr va issiqlik energiyasi hamda gazni ulangan tarmoq orqali olish usuli belgilanishi va shu bog'liqlik tufayli shartnoma tabiatining





o'zgarasligi kerakligidan kelib chiqishadi [4].

Shu bilan birga, barcha turdagi elektr va issiqlik ta'minoti bir xil oldi-sotdi shartnomasi bilan belgilanadi, degan fikrga qo'shib bo'lmaydi. Masalan, savol tug'iladi: aholiga sisternalar [5] orqali yetkazib beriladigan va maxsus holatlarda rezervuarlar [6]ga to'ldiriladigan gaz va suv kabi holatlarda qaysi turdagi shartnoma (yetkazib berish, haq evaziga yoki tekin xizmat ko'rsatish, ta'minot shartnomasi) qo'llanilishi kerak?

Shuningdek, avariylar va tabiiy ofatlar vaqtidagi holatlarni ham chetlab o'tmaslik kerak. Masalan, tog'li hududlarda shunga o'xshash joylarda aholi elektr energiyasini markazlashgan yagona tizimdan emas, balki suyuq yoqilg'i ishlatuvchi maxsus qurilma yordamida ishlab chiqarib, vaqtinchalik foydalanish uchun mahalliy energiya tarmoqlariga ulangan alohida elektr simlari orqali oladi. Bu yerda mahalliy o'zini o'zi boshqarish organlari (ijarachi) va energiya ta'minotchi tashkilot (ijara beruvchi) o'rtasidagi ijara munosabatlari yuzaga kelgan. Chunki ijaraga berilgan mulk butun energetika tizimi emas, balki faqat alohida elektr simlaridan iborat bo'ladi. Aholiga (abonentga) elektr energiyasi yetkazib berish esa oldi-sotdi shartnomasi asosida amalga oshirilishi kerak.

Fikrimizcha, bu holatda bir xil predmet bo'lgan taqdirda ham turli shartnoma turlari (oldi-sotdi, yetkazib berish, ijara, saqlash, haq evaziga xizmat ko'rsatish) bilan tartibga solinadigan turli huquqiy munosabatlar vujudga kelishi mumkin. Ammo bu holatlar FK 468-moddasi 1-qismida nazarda tutilgan, ya'ni tutashtirilgan tarmoq orqali amalga oshiriladigan munosabatlarga taalluqli emas.

Shu munosabat bilan "tutashtirilgan tarmoq orqali" tushunchasiga ta'rif berish zarur. "Tutashtirilgan tarmoq orqali" deganda, biror narsaga — bizning holatda energetika tizimiga — elektr, suv, gaz va h.k.ni ulash va yetkazib berishni tashkil etish uchun qo'shimcha qurilma ulanishi tushuniladi.

Shuningdek, elektr energiyasini tovar sifatida sotib olishda xaridor to'g'ridan-





to'g'ri tovarning o'zi uchun emas, balki uning yetkazib beriladigan hajmi uchun, ya'ni hisoblagich ko'rsatkichlari asosida to'laydi. Bunday holda to'lov munosabatlari oldi-sotdi shartnomasining o'ziga xosligi sifatida qaraladi va ular FKning 470-moddasi bilan tartibga solinadi. Unga ko'ra, energiya uchun to'lov abonent tomonidan aniq qabul qilingan miqdorda amalga oshiriladi. Shuni qayd etish lozimki, bunday to'lov shakli faqat abonentga nisbatan qo'llaniladi, asosiy xaridorga emas. Xaridor esa sotib olish-sotish shartnomasi bo'yicha tovarni to'lashi yoki oldindan to'lov qilishi kerak, bu yetkazib berish shartnomasida ham nazarda tutilgan. Elektr energiyasidan foydalanish bo'yicha to'lov masalasi quyida alohida ko'rib chiqiladi.

Shunday qilib, xaridor va sotuvchi o'rtasidagi shartnomaviy huquqiy munosabatlar, birinchi navbatda, elektr energiyasini iste'mol qilish miqdorini aniqlashdan kelib chiqadi.

Qonunga ko'ra, energiya miqdori shartnoma bilan belgilanadi va uning haqiqiy iste'moli qoidalariga asosan belgilanishi kerak (FKning 470-moddasi). Bugungi kunda bu aniq miqdorni belgilashda jiddiy muammolarni keltirib chiqaradi. Agar qonundagi qoidani oladigan bo'lsak, energiya miqdori uning haqiqiy iste'moliga qarab belgilanadi. Bu esa uning statistik va moliyaviy hisobotlarga kiritilgan ma'lumotlariga asoslanishi kerakligini anglatadi. Ammo elektr energiyasining aniq iste'moli kunma-kun yoki soatma-soat o'zgarishi mumkin (masalan, fors-major holatlar yuzaga kelganda).

Qonun energiya zaxirasini (rezervatsiya) nazarda tutmaydi. Shuningdek, FKning 470-moddasi 2-qismida: "Energiya ta'minoti shartnomasida abonentning o'zi qabul qiladigan energiyaning shartnomada belgilangan miqdorini energiya bilan ta'minlovchi tashkilotning energiyani shartnomada belgilanmagan miqdorda berishni ta'minlash bilan bog'liq xarajatlarini qoplash sharti bilan o'zgartirish huquqi nazarda tutilishi mumkin" deb belgilangan. Bunday holatda qo'shimcha





energiya uchun oldindan to'lov qilish yoki oldindan tuzilgan majburiyat shartnomasi tuzish mumkin.

Afsuski, FK bu ta'rifni batafsil tarzda ochib bermagan. Ushbu moddada nazarda tutilgan qoidaga ko'ra, energiya ta'minoti shartnomasida abonent shartnomada belgilangan energiya miqdorini o'zgartirish huquqiga ega bo'lishi mumkin, ammo bu huquq cheklanmagan tarzda emas, balki faqat energiya bilan ta'minlovchi tashkilot qo'shimcha ravishda yetkazib berishiga to'g'ri keladigan energiya xarajatlarini qoplash sharti bilan amalga oshirilishi mumkin, ya'ni bu norma abonentga talab qilinadigan miqdorni o'zgartirish imkonini bersa-da, energiya ta'minotchisining iqtisodiy manfaatlarini ham himoya qiladi, chunki shartnomada belgilanmagan qo'shimcha energiya yetkazib berish ortiqcha xarajatlar keltirib chiqaradi va ular abonent zimmasiga yuklanishi shart etiladi.

Energiya ta'minoti shartnomasining asosiy xususiyatlari:

energiya qo'shilgan tarmoq orqali abonentning uskunasi uzatiladi;

abonent energiyadan foydalanishda belgilangan rejimga rioya qilishi, tarmoq va uskunalarni xavfsiz holda ishlatishi shart;

energiya ta'minoti tashkiloti abonent uskunasi holatini tekshirish huquqiga ega;

abonent energiya qabul qiluvchi uskunalariga ega bo'lishi va energiya iste'molini hisobga olishni tashkil qilishi shart;

energiya ta'minoti shartnomasi faqat FK normalari bilan cheklanib qolmaydi, balki maxsus qonun va qoidalar bilan ham tartibga solinadi [7]. Masalan, 2024-yil yil 7-avgustdagi "Elektr energetikasi to'g'risida"gi qonun [8] hamda Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 31-avgustdagi "Elektr energiyasi va tabiiy gazdan foydalanish qoidalarini tasdiqlash to'g'risida"gi 319-sonli qarori [9] bilan hisoblagichlarni o'rnatish va ekspluatatsiya qilish tartibi belgilagan.

Fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organlari uchun, abonent sifatida, energiya





ta'minoti shartnomasining xususiyati alohida qonunosti xujjatli bilan tartibga solinadi. Jumladan, 2023-yil 21-dekabrdagi "O'zbekiston mahallalari uyushmasi faoliyatini yo'lga qo'yish va mahallalarda boshqaruv tizimini takomillashtirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" PQ-402-son qarori [10]ga muvofiq O'zbekiston mahallalari uyushmasi tashkil qilingan bo'lib, Uyushma hamda uning Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar boshqarmalari hamda tuman (shahar) bo'limlari yuridik shaxs hisoblanadi. Ushbu hujjatga muvofiq Uyushma va mahallalar faoliyatini moliyalashtirishning tartibi o'rnatilgan bo'lib, jumladan, jamg'arma mablag'laridan foydalanish tartibi ham ko'zda tutilgan. Jamg'arma mablag'larini sarflashning yo'nalishlaridan biri sifatida mahalla hududidagi ichki yo'llar, piyodalar yo'lakchalari, yoritish tizimi, elektr energiyasi hamda tabiiy gaz tarmoqlari, ichimlik va oqava suv tizimini ta'mirlash va tiklash kabilarni o'z ichiga oladi. Shu bilan birga elektr energiyasini hisobga olish tizimini plombalash va elektr ta'minoti shartnomasini tuzish, elektr ta'minoti loyihasini kelishish bilan bog'liq harakatlarni amalga oshiradi. Bundan ma'lum bo'ladiki, O'zbekiston mahallalari uyushmasi va uning hududiy boshqarmalari, tuman (shahar) bo'limlari yuridik shaxs sifatida o'ziga tegishli bo'lgan hududdagi fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari nomidan energiya yetkazib beruvchilar bilan shartnoma tuzadi. Bu tizimda mahalla fuqarolar yig'inlari yuridik shaxs vakolatlaridan foydalanishi mumkin bo'lishiga qaramasdan, amalda energiya masalasida mustaqil ishtirokchi emas.

Mahalla uyushmasi tomonidan tuzilgan energiya yetkazib berish shartnomasi faqat fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarining o'ziga xos funksiyalarini bajarish uchun energiya yetkazib berishni nazarda tutadi. Hozirgi amaliyotda fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari binolarini qurish davlat-xususiy sheriklik (DXSH) asosida amalga oshirilmoqda. Bu holatda binoning muayyan qismi fuqarolar yig'ini ehtiyojlari uchun, boshqa qismi esa xususiy tadbirkor





faoliyati uchun ajratiladi. Bu masala, mazkur qonunda o'z ifodasini topgan. O'zbekiston Respublikasining "Davlat-xususiy sheriklik to'g'risida"gi qonuniga muvofiq, davlat-xususiy sheriklik - davlat sherigi va xususiy sherikning muayyan muddatga yuridik jihatdan rasmiylashtirilgan, davlat-xususiy sheriklik loyihasini amalga oshirish uchun o'z resurslarini birlashtirishiga asoslangan hamkorligi hisoblanadi. Qoidaga ko'ra fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarining binolarini DXSH asosida qurishda xususiy sherik kapital mablag'lari kiritadi, davlat sherigi esa yer uchastkasini berishi yoki boshqa ko'mak ko'rsatishi mumkin. DXSH obyekti sifatida loyihalashtirilishi, qurilishi, barpo etilishi, yetkazib berilishi, moliyalashtirilishi, rekonstruksiya qilinishi, modernizatsiyalashtirilishi, ekspluatatsiya qilinishi va xizmat ko'rsatilishi amalga oshiriladi. DXSH shartnomasi asosida tadbirkorga binodan foydalanish huquqi beriladi, ammo uning elektr ta'minoti bilan bog'liq munosabatlari alohida shartnoma orqali tartibga solinmagan. DXSH asosida qurilgan mahalla fuqarolar yig'ini binosida o'ziga xos mulkiy munosabatlar tizimi shakllanadi. Binoning bir qismi mahalla fuqarolar yig'inining davlat vazifalarini bajarish uchun mo'ljallanadi, boshqa qismi esa xususiy sherik tomonidan kommersiyaviy maqsadlarda ishlatilishi mumkin. Bunday holatda bir obyekt doirasida turli maqsadli foydalanish rejimlari qorishib ketadi.

Energiya ta'minoti shartnomasi uyushma tomonidan mahalla fuqarolar yig'ini nomidan tuzilganligi sababli, butun bino uchun yagona limit belgilanadi. Bu holat DXSH shartnomasida belgilangan energiya iste'moli tartibi bilan amaliy foydalanish o'rtasida moslashuvchanlikning yo'qligiga olib kelmoqda.

Noqonuniy energiya iste'molining huquqiy tabiati haqida quyidagilarni keltirish mumkin:

birinchidan, DXSH binosidagi tadbirkorlik subyektlarining mahalla fuqarolar yig'ini energiyasidan foydalanishi bir necha huquqiy sohalarda qonunbuzarlikni keltirib chiqaradi. Birinchi navbatda, bu shartnoma huquqining buzilishi





hisoblanadi, chunki mahalla uyushmasi tomonidan tuzilgan energiya yetkazib berish shartnomasi faqat mahalla fuqarolar yig'inining o'ziga xos funksiyalarini bajarish uchun energiya olishni nazarda tutadi;

ikkinchidan, mulkiy huquqlar sohasida buzilishlar sodir bo'ladi. Mahalla fuqarolar yig'inining byudjet mablag'lari hisobidan to'langan energiyani kommersiyaviy maqsadlarda ishlatish davlat mulkidan noqonuniy foydalanish hisoblanadi. Agar DXSH shartnomasida energiya xarajatlarini taqsimlash tartibi belgilangan bo'lsa, bu xususiy sherikning moliyaviy manfaatlariga ham ta'sir etishi mumkin;

Uchinchidan, energiya yetkazib beruvchi tashkilotning huquqlari buziladi, chunki u ma'lum tarif bo'yicha xizmat ko'rsatsa-da, amalda energiya ko'zda tutilmagan maqsadlarda ishlatiladi.

Demak yuqoridagi amaliyot muammolarining tahlili orqali quyidagi xulosaga mumkin:

hozirgi amaliyotda fuqarolar yig'inlari binolarining DXSH asosida qurilishi ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan maqbul, ammo energiya ta'minoti munosabatlari huquqiy jihatdan noaniq;

elektr energiyasi shartnomasi mahalla uyushmasi tomonidan tuzilishi to'g'ri yechim hisoblanadi, ammo tadbirkorlar faoliyatini tartibga soluvchi qo'shimcha shartnomaviy mexanizm joriy etilmasa, aholi manfaatlarini kamsitilaveradi. Shuning uchun qonunchilikda "mahalla uyushmasi – energiya ta'minotchisi – tadbirkor" o'rtasidagi munosabatlarni aniq belgilash talab etiladi. Bu bir tomondan, aholi manfaatlarini himoya qiladi, ikkinchi tomondan, tadbirkorlar faoliyatini qonuniy yo'lga qo'yishga xizmat qiladi.

Fuqarolar yig'inlari binolaridan tadbirkorlik subyektlari foydalangan holda energiya ta'minoti munosabatlarida Fuqarolar yig'inlari binolari davlat–xususiy sheriklik asosida qurilgan yoki ularning muayyan qismi tadbirkorlik subyektlariga





foydalanish uchun berilgan hollarda, energiya ta'minoti shartnomasi faqat O'zbekiston mahallalari uyushmasi tomonidan energiya ta'minoti korxonasi bilan tuzilishiga oid norma qonunchilik xujjatlarida o'z ifodasini topishi lozim.

Shuningdek qonunchilik bilan quyidagilar ham tartibga solinishi zarur. Xususan, tadbirkorlik subyektlari binodan foydalangan taqdirda, ular elektr energiyasidan mustaqil ravishda shartnoma tuzmasdan foydalanish huquqiga ega emas.

Tadbirkorlik subyektlari energiya ta'minotidan qonuniy foydalanishi uchun:

a) mustaqil ravishda energiya ta'minotchisi bilan alohida shartnoma tuzishi; yoki

b) mahalla uyushmasi bilan subshartnoma tuzishi shart.

Fuqarolar yig'ini binosida tadbirkorlik subyektlarining noqonuniy ravishda energiya ta'minoti tarmoqlariga ulanishi holati aniqlanganda, ular qonun hujjatlariga muvofiq ma'muriy va moddiy javobgarlikka tortiladi.

Mahalla uyushmasi energiya ta'minoti limitining aholi ehtiyojlari uchun ajratilgan qismi tadbirkorlar tomonidan noqonuniy sarflanishiga yo'l qo'ymasligi shart. Bu holatda mahalla uyushmasi nazorat funksiyasini amalga oshiradi, ammo bevosita noqonuniy harakat uchun javobgar hisoblanmaydi.

Mazkur norma mahalla uyushmasi va tadbirkorlar o'rtasidagi munosabatlarni aniq tartibga soladi. Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari faoliyatini amalga oshirish uchun ajratilgan energiya limiti tadbirkorlar tomonidan noqonuniy sarflanishi oldi olinadi. Tadbirkorlar mustaqil shartnoma yoki subshartnoma orqali qonuniy ravishda elektrdan foydalanish imkoniga ega bo'ladi.

Shunday qilib quyidagi ilmiy xulosaga kelish mumkin:

Davlat–xususiy sheriklik obyektida energiya ta'minoti munosabatlarini huquqiy tartibga solish muammosi mulkiy huquq, shartnoma huquqi va raqobat huquqi normalari kesishmasida paydo bo'ladi. Shundan kelib chiqib, qonunchilikda





funksional ajratilgan energiya iste'moli tamoyili mustahkamlanishi shart. Energiya ta'minoti shartnomasi asosiy subyekt sifatida mahalla uyushmasi orqali amalga oshirilishi lozim, ammo tadbirkorlik subyektlari qonuniy foydalanishi uchun alohida shartnoma yoki subshartnoma mexanizmi joriy etilishi zarur. Majburiy energetik audit va elektron monitoring tizimi esa profilaktika va javobgarlik mexanizmlarining samaradorligini ta'minlaydi.

REFERENCES

1. Корнеев СМ. Договор о снабжении электроэнергией между социалистическими организациями. М., 1956. С. 13.
2. Шафир А.М. Энергоснабжение предприятий: Правовые вопросы. М., 1990. С. 8-9.
3. Гражданское право: Учебник / Под ред. А.П. Сергеева, Ю.К. Толстого. С. 85.
4. Садиков О.Н. Правовые вопросы газоснабжения. М., 1961. С. 158 - 159.
5. Izoh: *“Sisternalar” – katta hajmdagi suyuqlik saqlanadigan va tashiladigan idishlar yoki maxsus texnik vositalar (rezervuar, avtotsisterna, temiryo‘l sisternasi).*
6. Izoh: *“Rezervuarlar” – katta hajmda suyuqlik yoki gaz saqlash va ularni ommaviy tarzda yig‘ish uchun mo‘ljallangan maxsus idishlar yoki tuzilmalar.*
7. Модин Н.А. Гражданско-правовые основы предпринимательской деятельности органов местного самоуправления. Диссертация на соискание учёной степени доктора юридических наук. Москва. 2005. С. 204.
8. O‘zbekiston Respublikasining Qonuni, 07.08.2024-yildagi O‘RQ-939-son (*Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 08.08.2024-y., 03/24/939/0595-son; 07.03.2025 y., 03/25/1044/0224-son).*
9. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori,



SCIENTIFIC CONFERENCE OPEN PROCEEDINGS

Global Academic Knowledge Repository



(Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi 05.05.2025-y., 09/25/289/0406-son).

10. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 21.12.2023-yildagi PQ-402-son.

Contact: 99 826 99 56

